



1913-yil aprel oyidan chiqib boshlagan

Fidoyilik —  
Vatanga xizmat demak!

2024-yil 1-oktabr, seshanba,  
113 (23.990)-son

# Zarafshon



www.zarnews.uz https://www.facebook.com/zarnews.uz @zarnews\_uz https://twitter.com/zarnews\_uz

Ko'ha tarix, bugungi hayot tajribasi barcha muammolarning yechimi, savollarning javobi faqat va faqat ta'limda, kamolot va baxt eshiklarining kaliti ta'lim va tarbiyada ekanidan dalolat beradi.

SHAVKAT MIRZIYOEV.

## O'ZBEKISTON O'QITUVCHI VA MURABBIYLARIGA

### Muhtaram ustoz va murabbiylar!

Avvalo, siz, azizlarni, yurtimizdagi ta'lim-tarbiya sohasi xodimlarini O'qituvchi va murabbiylar kuni — umumxalq bayrami bilan chin qalbidan muborakbod etib, barchan-gizga eng ezgu tilaklarimni bildirishdan baxtiyorman.

Xalqimiz o'zining azmu shijoati, bunyodkorlik salohiyati bilan Yangi O'zbekiston va Uchinchi Renessans poydevorini barpo etayotgan bugungi kunda ushbu ulug' ayomning mohiyati, muallim va ustozlarning jamiyatimiz hayotidagi o'rni va ahamiyati ayniqsa ortib bormoqda.

El-yurtimiz azaldan e'zozlab keladigan o'qituvchi va murabbiylarning maqomini, qadr-qimmatini yanada yuksaltirish — biz amalga oshirayotgan davlat siyosatining eng muhim, hal qiluvchi yo'nalishiga aylangani ham shundan dalolat beradi.

Zero, donishmandlar aytganlaridek, mamlakat avvalo yerdan rizq-nasiba undiradigan dehqonlar, xalqni yovdan, turli yovuzliklardan himoya qiladigan askarlar, yosh avlodga ta'lim va tarbiya beradigan fidoyi muallimlarning sa'y-harakati bilan obod va farovon bo'ladi.

### Hurmatli vatandoshlar!

Keyingi yillarda milliy taraqqiyot strategiyamiz asosida yurtimizda ta'lim va tarbiya tizimida ham tom ma'noda tarixiy ishlar amalga oshirilmoqda.

Qisqa fursatda sohaga oid ko'plab qonun, farmon va qarorlar qabul qilinib, bu boradagi huquqiy baza mustahkamlandi. Yangilangan Konstitutsiyamizda o'qituvchining maqomi alohida belgilab qo'yildi.

Respublikamizda har yili yangi-yangi ta'lim maskanlari barpo etilib, ularning moddiy-texnik bazasi, kadrlar salohiyati mustahkamlanmoqda. Darslik va o'quv qo'llanmalarining zamon talablariga mos yangi avlodi yaratilmoqda.

Ayniqsa, maktabgacha ta'lim tizimi dunyodagi ilg'or tajribalar asosida mutlaqo yangicha rivojlanish bosqichiga qadam qo'ydi. Yurtimizdagi bolalar bog'chalari soni 8 barobar oshib, salkam 38 mingtaga, jumladan, nodavlat ta'lim muassasalari 250 tadan 29 mingtaga, qamrov esa 27 foizdan 76,4 foizga yetgani ham bu fikrni tasdiqlaydi.

Mamlakatimizda maktab ta'limini rivojlantirish umum-milliy harakatga aylandi. Bu haqda so'z yuritganda, oxirgi yetti yilda 5 mingdan ziyod maktabda, shu yilning o'zida esa 608 ta maktabda qurilish va ta'mirlash ishlari bajarilganini ta'kidlash lozim.

Ik bor 530 ta maktabda inklyuziv ta'lim joriy etildi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatida 288 ming nafardan ortiq boshlang'ich sinf o'quvchilarining bepul o'qitilishi yo'lga qo'yildi.

Xususiy sektor rivoji uchun yaratib berilayotgan qulay imkoniyatlar natijasida nodavlat maktablar ulushi 5 foizga yetgani diqqatga sazovordir.

Biz inson qadrini ulug'lashga qaratilgan ulkan ishlarimiz doirasida o'qituvchi va murabbiylar mehnatini munosib baholash va rag'batlantirishga alohida ahamiyat bermoqdamiz.

Bugungi kunda o'qituvchilarning ish haqi 2016-yilga nisbatan o'rtacha 2,5 marta, professor-o'qituvchilarning oylik maoshi esa 4,5 karra o'sgani, oktyabr oyidan pedagog xodimlarning ish haqi yana 15 foizga oshirilishi shu boradagi sa'y-harakatlarimiz natijasidir.

Ta'lim sifatini yuksaltirish maqsadida pedagoglarning malakasini oshirish bo'yicha yagona va vertikal tizim yaratildi. Joriy yilda hozirga qadar 142 nafar o'qituvchi ilg'or xorijiy davlatlarda malaka oshirib qaytdi. Maktab

direktori lavozimiga tayinlash tizimi takomillashtirilib, ularga menejerlik sertifikatini berish tartibi o'rnatildi.

Ta'lim-tarbiya sohasiga berilayotgan ulkan e'tibor tufayli yoshlarimiz bilim, fan va texnika, madaniyat va san'at, sport sohaslarida yuksak marralarni qo'lga kiritayotgani barchamizni mamnun etmoqda.

O'quvchilarimiz 2010-2016-yillarda xalqaro fan olimpiadalarida 73 ta medalni qo'lga kiritgan bo'lsa, so'nggi yetti yilda 349 ta, 2024-yilning o'zida esa 122 ta medalga sazovor bo'lgani ham birinchi navbatda sizlarning mashaqqatli mehnatingiz samarasidir.

Bu borada xalqaro fan olimpiadalarida g'oliblikni qo'lga kiritgan o'quvchilarning ustozlarini rag'batlantirish tizimi yo'lga qo'yilgani va shu maqsadda Davlat budgetidan 6 milliard so'm mablag' yo'naltirilgani muhim rag'batlantiruvchi omil bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekiston tarixida birinchi marta buyuk allomalarmizga bag'ishlangan xalqaro fan olimpiadalarini o'tkazishni boshladik. Bu esa farzandlarimiz, butun xalqimiz qalbida g'urur va iftixor tuyg'usi bilan birga, dunyoda O'zbekistonning ma'rifiy nufuzini ham yuksaltirmoqda.

Maktabda ikkinchi xorijiy til va kasb-hunarlarini o'rgatish borasida ham muhim qadamlar tashlandi. Joriy o'quv yilida 354 ta maktabda 16 mingdan ziyod o'quvchiga ikkita xorijiy tilni o'qitish, 289 ta maktabda 40 mingdan ortiq o'quvchiga kasb-hunar o'rgatish yo'lga qo'yildi.

Oliy ta'lim sohasida ham katta islohotlar amalga oshirilmog'da. Qisqa muddatda yurtimizda 135 ta yangi oliyog'hor tashkil etilib, ularning umumiy soni 211 taga yetkazildi, tizimda qamrov darajasi 4 barobardan ziyod oshib, 9 foizdan 38 foizga yetgani misolida buni yaqqol ko'rish mumkin.

### Qadrlil do'stlar!

Ko'ha tarix, bugungi hayot tajribasi barcha muammolarning yechimi, savollarning javobi faqat va faqat ta'limda, kamolot va baxt eshiklarining kaliti ta'lim va tarbiyada ekanidan dalolat beradi.

Barchamiz yaxshi tushunamizki, o'z oldimizga qo'ygan buyuk maqsadlarga yetishda — jonajon O'zbekistonimizni erkin va farovon, har tomonlama obod mamlakatga aylantirishda soha rivojini yangi sifat bosqichiga ko'tarish hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Sizlar bilan bo'lib o'tgan sermazmun va samimiy muloqotimizda bu haqda yana bir bor fikr almashib, kelajak rejalarimizni aniq belgilab oldik.

Ishonchim komil, siz, muhtaram pedagoglar, professor-o'qituvchilarimiz ta'lim sohasidagi islohotlarimizda yanada faol ishtirok etib, "Yangi O'zbekiston — ma'rifiy jamiyat" degan olijanob g'oyamizni amalga oshirishga munosib hissa qo'shasiz.

Hech shubhasiz, biz ta'lim va tarbiya tizimini yanada ravnaq toptirish, soha xodimlari uchun munosib mehnat va turmush sharoitlarini yaratish masalasiga bundan buyon ham ustuvor ahamiyat beramiz va o'qituvchilikni jamiyatimizda eng obro'li kasblar qatoriga olib chiqamiz.

### Muhtaram ustozlar!

Mana shu shukuhli ayyomda siz, azizlarni yana bir bor chin dildan qutlab, barchangizga sihat-salomatlik, oilaviy baxt, ezgu va sharaflil faoliyatingizda ulkan muvaffaqiyatlar tilayman.

Hamisha sog'-omon bo'ling, qadrlil va mehribon ustozlar!

Shavkat MIRZIYOEV,  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti.



## Ustozlar sharaflandi

### O'qituvchi va murabbiylar kuni viloyati-mayda ham keng nishonlanmoqda. Bayram munosabati bilan viloyat hokimligida tantanalil marosim o'tkazildi.

Viloyat hokimi Erkinjon Turdimov samarqandlik o'qituvchi va murabbiylarini kasb bayrami bilan ta'briklab, ularning zahmatli mehnatlarini e'tirof etdi.

— Har birimiz qo'limgiza qalam tutqazib ilk saboq bergan tarbiyachi va muallimlarimizdan tortib oliy ta'limda kasb, mutaxassislik o'rgatgan professor-o'qituvchilar, hayotda o'z yo'limizni topishimiz uchun qimmatli maslahatlarini ayamagan ustozlarimizdan minnatdormiz, doim ular oldida qarzodormiz, — dedi E.Turdimov. — Keyingi yillarda Prezidentimiz tashabbuslari bilan yurtimiz ta'lim sohasini isloh qilish jarayonida soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, jamiyat hayotida o'qituvchi va murabbiylarning o'rini oshirish, ularning hurmat-i-zatini joyiga qo'yishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'qituvchi va murabbiylar qadr topgan yurtida ta'lim-tarbiya sifati yuqori bo'ladi, maktabning, ta'lim dargohlarining nufuzi oshadi va eng muhimi, yuksak intellektual salohiyatli yosh avlod kamol topadi. Bugun yurtimizda maktab ta'limini rivojlantirish umum-milliy maqsadga, umumxalq harakatiga aylandi.

Yangi O'zbekiston maktab ostonasidan boshlanadi, degan hayotbaxsh g'oya barcha sa'y-harakatlarimizning asosi bo'lmoqda. Tadbirda bayram arafasida Prezidentimiz farmoniga ko'ra, davlatimizning yuksak unvon, orden va medallari bilan taqdirlangan samarqandlik o'qituvchi va murabbiylarga ushbu mukofotlar tantanalil ravishda topshirildi.

— Oltin yildan buyon sport sohasida mehnat qilib kam bo'lmadim, — deydi jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Samarqand filiali professori, II darajali "Sog'lom avlod uchun" ordeni sohibi Hamroqul Rofiyev. — Viloyatimizda sportni rivojlantirish, mahoratli sportchilarni tayyorlashga ozmi-ko'pmi hissa qo'shdim va hozir ham yoshlariga o'z hayot tajribalarimni o'rgatib kelyapman. Muhimi, sportga oshno bo'lganim tufayli bugun — 85 yoshimda ham o'zimni bardam va tetik his qilaman. Ustozlar bayrami munosabati bilan davlatimiz

rahbari tomonidan e'tirof etilganim, yuksak davlat mukofotiga loyiq ko'rilganim esa menga yangi kuch-shijoat bag'ishladi.

Marosimda viloyatimiz ta'lim tizimi ilg'orlaridan yana bir guruhiga "Xalq ta'limi a'lochisi" ko'krak nishoni, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining tashakkurnomasi hamda viloyat hokimligining faxriy yorliq'i va qimmatbaho sovg'alari topshirildi.

— To'rt yildan beri Samarqand shahridagi Prezident maktabida ingliz tilidan dars beraman, — deydi ingliz tili fani o'qituvchisi Yayra Raximova. — Ungacha litsey, maktablarda ingliz tili o'qituvchisi, malaka oshirish institutida metodist bo'lib ishladim. 2023-yilda Cambridge Assessment International Education tomonidan tashkil qilingan malaka oshirish kurslarida qatnashib, "Ilg'or o'qituvchi" sertifikatini qo'lga kiritdim. Bugun viloyat hokimligining faxriy yorliq va estalik sovg'alari bilan taqdirlandim. O'qituvchi uchun o'z mehnatining qadrlanishi — bu katta baxt.

Viloyatimiz ta'lim sohasi vakillari poytaxtimizda o'tkazilgan bayram tadbirlarida ham ishtirok etdi.

Jumladan, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligida o'tkazilgan tadbirda Kattaqo'rg'on tumanidagi 43-umumiy o'rta ta'lim maktabining jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi Rustam Mirzayev "Xalq ta'limi fidoyisi", Narpay tumani 22-umumiy o'rta ta'lim maktabining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Dilbar Qobilova "Xalq ta'limi a'lochisi" ko'krak nishonlari bilan mukofotlandi.

\*\*\*

Samarqand viloyati oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi tomonidan tashkil etilgan tadbirda o'z yulini eng mashaqqatli va sharaflil ishga bag'ishlab kelayotgan professional ta'lim tizimi xodimlari va faxriylari sharaflandi.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining tegishli buyrug'i bilan o'rta maxsus va professional ta'lim sohasida fidokorona mehnat qilayotgan, o'zining yuqori kasb mahorati, yorqin iste'dodi va ijodiy, vatanparvarlik fazilatlarini bilan el-yurt o'rtasida hurmat qozongan, soha rivojiga munosib hissa qo'shib kelayotgan bir guruh xodimlar "O'rta maxsus va professional ta'lim a'lochisi" ko'krak nishoni bilan mukofotlandi.

Xurshida ERNAZAROVA,  
Baxtiyor MUSTANOV (surat).

## O'qituvchi obro'si — millatning obro'si

partiya yetakchisi samarqandlik ta'lim sohasi vakillari bilan uchrashdi



Samarqand davlat chet tillari institutida «Adolat» SDP siyosiy kengashi raisi Robaxon Mahmudova samarqandlik ta'lim sohasi vakillari, pedagoglar bilan uchrashdi. Unda deputatlikka nomzodlar, institut professor-o'qituvchilari, partiya faollari, talabalar va OAV vakillari ishtirok etdi.

Partiya yetakchisi yurtimizdagi har bir pedagog, ta'lim sohasi vakilli jonkuyar, fidoyi shaxs ekanini e'tirof etib, ularning o'z bilim va mahoratini doimiy ravishda oshirishida, haq-huquqlari, ijtimoiy muhofazasini ta'minlashda "Adolat" SDP ularga doimiy yelkadosh bo'lish uchun harakat qilayotganiga to'xtaldi.

Robaxon Mahmudova partiyaning 2024-2029-yillarga mo'ljallangan saylovidi dasturda ta'lim sohasini rivojlantirish, bunda o'quv dasturlarini qayta ko'rib chiqish, ta'lim muassasalarini zamonaviy infratuzilma bilan ta'minlash, o'quv samaradorligini oshirish kabi masalalarga alohida e'tibor qaratilganini ta'kidladi.

— Partiya uzluksiz ta'lim tizimini muntazam takomillashtirish, sifatli ta'lim-tarbiya berish, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash tarafdori, — deydi partiyaning Kattaqo'rg'on shahar Kengashi qoshidagi «Yoshlar qanoti» harakati raisi Shahrizoda Mahmudova. — Bu borada ta'limning har qanday turida ta'lim muassasalariga qabul qilish tartibini ishlab chiqish, ayniqsa, davlat maktabgacha ta'lim muassasalariga tarbiyalanuvchilarni qabul qilish tartibini qayta ko'rib chiqish, shu maqsadda «ochiq onlayn ro'yxat» tashkil etish takliflarini har jihatdan manfaatli va kerakli, deya olaman.

«Adolat» SDP viloyat kengashi axborot xizmati.

## Saylovchilar bilan yuzma — yuz



O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi mas'ullari va faollari, deputatlikka nomzodlar tomonidan aholi o'rtasida qizg'in targ'ibot-tashviqot ishlari olib borilmoqda.

Aholi bilan muloqotlar chog'ida saylovlarning davlat va jamiyat hayotida tutgan o'rni, rivojlangan demokratik davlatni barpo etishda barcha birgalikda harakat qilishi lozimligi aytilib, yurtdoshlarimizga hozirgi siyosiy jarayonlarda befarq bo'lmaslik muhimligi tushuntirilmoqda.

Samarqand shahar Yoshlar markazida O'zbekiston Xalq demokratik partiyasidan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi, xalq deputatlari viloyat, tuman-shahar kengashlari deputatligiga nomzodlarning saylovchilar bilan uchrashuvida ham shunday holat kuzatildi.

Muloqotda O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi nomzodlari partiyaning yangi saylovoldi dasturida belgilangan asosiy maqsad va vazifalar haqida so'z yuritdi.

Xususan, partiya dasturida davlat va jamiyatni rivojlantirish, huquqlar va imkoniyatlar tengligini ta'minlash, kuchli ijtimoiy siyosat yuritishga qaratilgan 15 qadami o'zida mujassam etgan 100 ga yaqin taklif va tashabbuslar ilgari surilmoqda. Tabiiyki, partiya bosh maqsadidan kelib chiqqan holda doimgidek, ijtimoiy yo'nalishga, ijtimoiy sohadagi muammolar yechimiga urg'u bergan.

Masalan, o'zgalar parvarishiga muhtoj bo'lgan 18 yoshgacha bolalarning kasalliklari ro'yxatini kengaytirish, shu orqali doimiy parvarishga muhtoj bo'lgan bolalarni parvarishlayotgan oilalarni davlat tomonidan ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish choralarini ko'rish haqidagi tashabbuslar insoniylik tamoyillariga to'la mos keladi.

Shuningdek, muloqotda partiya aholining qaysi hududda yashashidan qat'i nazar, davlat tomonidan kafolatlangan tibbiy xizmat olishi, sog'liqni saqlash tizimini to'liq raqamlashtirish orqali sohada shaffoflikni ta'minlash tarafdori ekanligi ta'kidlandi.

Tadbirda so'ngida ishtirokchilar partiyaning qo'llab-quvvatlab, fikr-mulohazalarini bildirishdi.

XDP viloyat kengashi axborot xizmati.

## Vengriya poytaxti Budapesht shahrida o'tkazilgan 45-Butunjahon shaxmat olimpiadasida O'zbekiston erkaklar terma jamoasi bronza medalni qo'lga kiritgan bo'lsa, qizlarimiz ishtirokini 12-o'rinda yakunladi.

## 45 — Butunjahon shaxmat olimpiadasi sovrindorlari taqdirlandi



Bronza medallarni qo'lga kiritgan O'zbekiston erkaklar jamoasi a'zolari "Prezident sovg'asi" sifatida BYD Chazor rusumidagi avtomobillar hamda pul mukofoti bilan taqdirlandi.

Olimpiadada sovrindor bo'lgan va faol ishtirok etgan viloyatimiz shaxmatchilari Jahongir Vohidov, Afruza Hamdamova hamda Marjona Malikova Samarqandda tantanalil kutib olindi.

Shu munosabat bilan tashkil etilgan tadbirda viloyat hokimi E.Turdimov ishtirok etib, sportchilarni ta'briklab, ularga tashakkurnoma va esdalik sovg'alarini topshirdi.

— Ikki yil avval Hindistonning Chennai shahrida o'tkazilgan 44-Butunjahon shaxmat olimpia-

dasida chempionlik shohsupasiga ko'tarilgan edik, — deydi Jahongir Vohidov. — Bu yil ham ikki karra chempion bo'lib, tarix yaratishni maqsad qilgandik. Afsuski, omadimiz kelmadi. Lekin kuchli shaxmatchilar orasida sovrindorlar qatoridan joy oldik. Bu yutuqlarning barchasi yurtimizda sportchilarga yaratilgan sharoit va shaxmatni rivojlantirishga qaratilayotgan e'tibor natijasi deb bilaman. 2026-yilda 46-Butunjahon shaxmat olimpiadasining O'zbekistonda va aynan Samarqandda o'tkazilishi ham bejiz emas. Mazkur nufuzli musobaqaga munosib tayyorgarlik ko'rib, faqat chempionlik uchun dona suramiz va bildirilgan ishonchni oqlaymiz.

# Viloyat hokimining birinchi o'qituvchisi

Har bir insonning xat-savod chiqarishi, dunyoqarashi shakllanishi, shaxs sifatida yuzaga chiqishida ustoz-muallimlarning xizmati katta. Bugun jamiyatda, xalq orasida obro' qozongan rahbarlar, yuqori martabaga ega mashhurlar ham ilk saboqni muallimdan olgan. Xo'sh, viloyat hokimi Erkinjon Turdimovni boshlang'ich sinfda kim o'qitgan, hokim ilk tahsilni qayerda olgan?



Qo'shrabotlik Bo'ribov Tovboyev Chimmos qishlog'ida tug'ilgan va shu qishloqdagi 57-umumta'lim maktabida ta'lim olgan. So'ngra o'zi ham o'qituvchi bo'lib, 33 yil boshlang'ich sinf o'quvchilariga dars bergan.

## "IKKI XONADA TO'RTTA SINIF O'QUVCHILARI O'QIRDI"

1955-yil Chimmos qishlog'ida-gi 57-maktabning birinchi sinfiga o'qishga borganman, - deydi otaxon. - Boshlang'ich sinfda o'zi ikkita xona bor edi, lekin to'rtta sinf o'quvchilari ikki navbatda o'qirdik. O'sha vaqtlarda rahmatli Alim Hoshiyev va Jo'liboy Shakarov ustozlarimiz o'qitgan bizni. Shu davrdagi hayot, maktablardagi sharoit va muallim bo'lish orzusi sababli bir nechta maktabda tahsil olishimga to'g'ri kelgan. Boshlang'ich sinfni bitirgach, biz yashaydigan qishloqdan ancha uzoqda joylashgan Qo'rg'on qishlog'idagi maktabda tahsil oldim. 1960-yilda o'zimizning Chimmos qishlog'ida yangi ochilgan maktabda o'qidim. Keyinchalik Jo'sh qishlog'idagi 56-maktabga o'qishim ko'chdi va 1966-yilda 11-sinfni bitirdim.

Maktabni bitirib, Kattaqo'rg'on-dagi pedagogika texnikumiga o'qishga kirdim. Texnikumda bir yil o'qigan-imdand keyin armiyaga olib ketishdi. Armiyada ikki yil xizmat qilib qaytgach, texnikumdagi o'qishni davom ettirdim va 1973-yilda bitirdim. Bir necha marta oliygohga o'qishga kirilmadim. Chimmosdan qariyb 30 kilometr uzoqlikda joylashgan Nurota rayoni Qovunchi qishlog'idagi maktabda ikki yil, 45-maktabda bir yil va 64-maktabda 20 yil boshlang'ich sinf o'quvchilariga dars berdim. Keyin 1994-yildan pensiyaga chiqqunga qadar 41-umumiy o'rta ta'lim maktabida ishladim.

## SHOGIRD DEGANI HOKIM, O'QITUVCHI, QURUVCHI, TADBIRKOR... BO'LSA

Besh o'g'il, ikki qizning otasi, o'n olti nevaraning suyuqli bobosi Bo'ri-

boy ota farzandlarini oliy ma'lumotli, uyli-joyli qilgan. Shogirdlari hokim, o'qituvchi, quruvchi, tadbirkor, fermer, xalq qabulxonasi mudiri sifatida faoliyat ko'rsatmoqda.

Shogirdlarimning aksariyati oliy ma'lumotli, turli sohalarda ishlaydi, - deydi Bo'ribov Tovboyev. - Tuman-dagi 64-maktabda ishlagan vaqtlarim viloyat hokimi Erkinjon Turdimov boshlang'ich sinfga kelgan edi. Tarbiyasi, bilimi, fe'li bilan boshqa o'quvchilardan ajralib turardi. A'lo baholarga o'qirdi, har yili faxriy yorliqlar olardi. Mana, mehnatlari besamar ketmadi, viloyatni boshqaryapti. Erkinjon va boshqa shogirdlarim meni doim yo'qlab turadi, ayniqsa, har bayramda kelib tabriklaydi. Shogirdlarimning jamiyatdagi o'rni, erishayotgan yutuqlari va menga munosabatidan mamnunman. Yaqinda o'quv yili boshlanishi oldidan Erkinjon bilan dildan suhbatlashdik, maktab davrlarini esladik. Ishlarining rivojini bersin.

## "IZLANGAN ODAM KAM BO'LMAYDI"

Bo'ribov ota ta'lim sohasi fidoyisi, jonkuyar ustoz. Hozir ham mahalla yoshlariga o'zining ibratli hayoti, boy tajribasi bilan o'rnatib bo'lib kelmoqda. Muallimning ko'p yillik mehnatlari inobatga olinib, I darajali "Mehnat faxriysi" ko'krak nishoni bilan taqdirlangan.

Umrinni yoshlar ta'lim-tarbiyasiga bag'ishladim, bu mehnatlarim e'tirof etilganidan xursandman, - deydi Bo'ribov Tovboyev. - Hozir o'qiyman, ishlayman, deydiganlar uchun yurtimizda barcha sharoit yaratilgan. Bu imkoniyatdan unumli foydalanish kerak. Mehnat qilgan, izlangan, o'z ustida ishlagan odam kam bo'lmaydi, el orasida obro' topadi.

Fazliddin RO'ZIBOYEV.

Xalqaro va respublika fan olimpiadalarida ishtirok etish va faxrli o'rinlarni qo'lga kiritish zamirida o'quvchida kuchli bilim hamda o'qituvchining zahmatli mehnati yotganini hamma ham bilavermaydi. Kattaqo'rg'on tumanidagi 15-umumiy o'rta ta'lim maktabining biologiya fani o'qituvchisi Dilfuza Nizomovaning o'quvchilari har yili nufuzli tanlovlarda qatnashib, sovrinli o'rinlarni egallab keladi. Dilfuza opa muallimlik kasbiga qanday mehr qo'ygani, o'ladagi tarbiya va shogirdlari erishayotgan yutuqlar haqida gapirib berdi.

# 42 biolog, 200 shifokor shogirdlar tayyorlagan pedagog faoliyatidan

Ota-onam go'dakligimda "Qizim olim bo'ladi", deb yostig'imning tagiga kitob qo'yishar ekan, - deydi D.Nizomova. Onam Saodat Zubirova Kattaqo'rg'on tumanidagi 15-o'rta ta'lim maktabida ko'p yillar fizika, matematika fanlari o'qituvchisi bo'lib ishlagan. Dadam Hakim Nizomov maktabda ona tili va adabiyot fanidan dars bergan. Ammo dadam erta olamdan o'tdi, men hali qizaloq edim.

Ota-onam bizning yoshligimizdan bilimni bo'lishimni istagan va shunga munosib tarbiya bergan. Men to'rtinchi farzand bo'lib, oilada 4 qiz, 1 o'g'il edik.

Yoshligimda shifokor bo'lishni orzu qilardim. Lekin tibbiyot institutiga emas, Samarqand davlat universitetining biologiya fakultetiga o'qishga kirdim. 1991-yil universitetni imtiyozli diplom bilan tugatdim. Universitetning biologiya fakultetiga ishga olib qo'lishdi. Men olim bo'lishni juda istardim, ammo turmushga chiqqach, taqdir taqozosi bilan o'zim o'qigan Kadan qo'rg'onidagi 15-maktabga ishga kirdim. Shu maktabda hozirgacha biologiya fanidan dars berib kelayman.

Maktabga 1991-yil ishga kirgan bo'lsam, to'rt yil ichida oliy toifali o'qituvchi bo'ldim. Bilimimni yanada boyitish uchun o'z ustimda tinimsiz ishladim va o'quvchilarni to'garaklarga jalb qildim. Biologiya fanidan ilmiy ishning mavzusi o'simliklardan rang olish edi. Ilmiy ishni maktabda davom ettirib,

dorixonalardan va maktab laboratoriyalaridan jihozlar olib keldim, o'quvchilarga o'simliklardan rang olish tajribasini o'rgatdim. Laboratoriyada ishlaganim bois tajribalarni o'quvchilarga ko'rsatish orqali ularni shu fanga qiziqirdim.

Harakatlarim besamar ketmadi, biologiya faniga qiziqqan o'quvchilarimni fan olimpiadalariga tayyorladim. O'quvchilari har yili biologiya, kimyo fanlaridan tibbiyot, pedagogika oliy ta'lim muassasalariga grant asosida o'qishga qabul qilindi, fan olimpiadalariga va iqtidorli o'quvchilar tanlovlari g'olib bo'ldi. 2021-yildan 2024-yilgacha o'quvchilarim Al-Xorazmiy nomidagi fan olimpiadasida, biologiya fanidan asosiy fan olimpiadalarida g'oliblikni qo'lga kiritib kelmoqda. Joriy yilning iyul oyida bo'lib o'tgan xalqaro Ibn Sino fan olimpiadasida o'quvchim Kamoliddin Ozodov bronza medal sohibi bo'ldi. Kamoliddin bilan 7-sinfaligidan beri alohida shug'ullanib kelaman. U 9-sinfligida biologiya fanidan asosiy fan olimpiadasining tuman bosqichida birinchi, viloyat bosqichida ikkinchi o'rinni egalladi. 2023-2024-o'quv yilida o'quvchim 10-sinflar o'rtasida asosiy fan olimpiadasining viloyat bosqichida birinchi o'rinni qo'lga kiritdi.

Bundan tashqari, keyingi yillarda fanlardan milliy sertifikatlar ham berilyapti. O'quvchilarim Zarina Yusupova, Kamoliddin Ozodov biologiya fanidan milliy sertifikatni qo'lga kiritdi.

Bundan tashqari, keyingi yillarda fanlardan milliy sertifikatlar ham berilyapti. O'quvchilarim Zarina Yusupova, Kamoliddin Ozodov biologiya fanidan milliy sertifikatni qo'lga kiritdi.



Bu yutuqlarga erishish uchun tinimsiz mehnat qildim va haligacha o'z ustimda ishlayman. Sababi o'z kasbimni yaxshi ko'rman. 33 yillik mehnat faoliyatim davomida 42 nafar o'quvchim kimyo, biologiya fanlari o'qituvchisi bo'ldi. Hozirgi vaqtda to'rt nafar shogirdim maktabda o'zim bilan birga ishlayapti. Bundan tashqari, Kattaqo'rg'on tumanining deyarli barcha maktablarida shogirdlarim biologiya fanidan dars berib kelyapti. 200 nafardan ortiq shifokor, farmatsevt shogirdlarim bor. Birinchi shogirdim Dilbar Mustafoyeva shifokorlik faoliyatida katta natijalarga erishdi. Hozir uning xususiy klinikalari bor. Bu men uchun juda katta baxt.

Albatta, mehnatlarim besamar ketmadi. 2003-yilda "Xalq ta'limi a'lochisi" ko'krak nishoni, 2021-yilda "Mehnat shuhrati" ordeni bilan taqdirlandim.

Bunday natijalarni qo'lga kiritishimga onajonim sababchi bo'ldi. Onam "Sizlarni oliygohlarda o'qitaman, oliy ma'lumotli qilaman deb, 14 yil bitta ko'ylakda o'qituvchilik qilibman", deb aytardi. Shu gaplari hech qachon yodimdan chiqmaydi. Yana onajonim "O'z bilimingni xalqqa ber, buning ajr-savobi katta bo'ladi", derdi.

X.ERGASHEVA tayyorladi.

**Toyloq tumanidagi 21-umumiy o'rta ta'lim maktabida 30 yildan beri rus sinflariga o'zbek tilidan dars berib kelaman. O'n yildirki, o'quvchilarim asosiy fan olimpiadasining tuman, viloyat bosqichlarida, shuningdek, insholar tanlovida qatnashib, yuqori o'rinlarni olib kelmoqda.**

## Bilinga chanqoq o'quvchilar ko'p

2023-2024-o'quv yilida bo'lib o'tgan fan olimpiadasining respublika bosqichida 11-sinf o'quvchim Shirinabonu Muhammadaminova o'zbek tili fanidan uchinchi o'rinni qo'lga kiritdi. Bu yil Shirinabonu O'zbekiston-Finlandiya pedagogika institutining boshlang'ich ta'lim yo'nalishiga grant asosida o'qishga kirdi.

Darsdan keyin o'zbek tili faniga qiziqadigan o'quvchilarga to'garak mashg'ulotlari o'taman. Shuningdek, ularni fan olimpiadalariga tayyorlayapman.

Hafiza ERGASHEVA,  
Toyloq tumanidagi 21-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi.

# Mehnatidan qadr topganlar

Bugun qaysi bir sohani olmang, uning rivoji, yuksalishlarining tamal toshi ilm-fan va ta'lim bilan qo'yiladi. Shu bois ham mamlakatimizda ta'lim-tarbiya masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, yoshlarning jahon andazalariga mos sharoitlarda bilim olishi, kasb-hunar o'rganishi uchun barcha kuch va imkoniyatlar safarbar etilgan. Bu esa yoshlarimizning xalqaro maydonlarda erishayotgan yutuqlarida, ularning zamonaviy bilimlarni egallashga bo'lgan cheksiz intilishlarida namoyon bo'lmoqda. Albatta, bu borada hammamiz har doim bosh egib, ta'zim qiladigan, ehtirom ko'rsatadigan ustoz va murabbiylarning o'rni beqiyos.



1-oktabr - O'qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan ta'lim-tarbiya tizimida alohida o'rnatilgan xodimlardan bir guruhini mukofotlash to'g'risida Prezident farmoni e'lon qilindi. Taqdirlanganlar orasida Paxtachi tumanidagi 21-umumiy o'rta

ta'lim maktabining rus tili va adabiyoti fani o'qituvchisi Stepanova Olga Anatolevna ham bor. U uzoq yillik fidokorona xizmati uchun "Do'stlik" ordeni bilan mukofotlandi. - Shu kasbim ortidan Vatanimizning, ona xalqimizning yuksak e'tirofi

va e'zoziga sazovor bo'ldim, - deydi Olga Stepanova. - Vujudim va aqlu shuurimni o'qituvchilikka bag'ishlab, kasbimdan baxt va sharaf topdim. Bundan baxtiyorman. Prezidentimizning «Maktabni o'zgartirmasdan turib, jamiyatni o'zgartirib bo'lmaydi. Ta'lim va tarbiyaning asosi - maktab. Maktabni maktab qiladigan kuch esa o'qituvchilardir», degan ta'kidlari ilm maskanimizdagi biz, ustoz-muallimlarning qalbidan chuqur joy olgan, faoliyatimiz mezoniga aylangan.

Olga Anatolevna 1992-yil Samarqand davlat universitetini tugatib, mehnat faoliyatini Paxtachi tumanidagi 21-umumiy o'rta ta'lim maktabida boshladi va hozirga qadar mazkur dargohda yoshlarga bilim berib kelyapti.

# Jasorat e'tirofi

Mustaqillikning o'ttiz uch yilligi munosabati bilan davlat mukofotiga munosib ko'rilganlar orasida paxtachilik Fotima Azamatova ham bor. "Hunarmand" uyushmasi Paxtachi tuman bo'limi a'zosi, mahoratli kashtachi Fotima "Jasorat" medali bilan taqdirlandi. Aslida jasorat uning hayotiy shiori ham.

Fotima Azamatova 1997-yilda Ko'rpa mahallasida tug'ilgan. Bolaligidan ziyrak va ilmga chanqoqligi bilan ajralib tursa-da, nigironligi unga bu salohiyatdan foydalanishni murakkablashtirdi. Shunga qaramay, u taslim bo'lmadi. Ilk saboqni uyida, 6-umumta'lim maktabi o'qituvchisi Nilufar Xayrullayeva ko'magida oldi. Umumiy o'rta ta'limni a'lo baholarga tugatib, Toshkentda, imkoniyati cheklanganlar uchun ixtisoslashtirilgan kasb-hunar kollejida o'qidi. Shu yerda u onasi Mohira Jamolovadan o'rgangan tikish-bichish sabog'ini yanada mustahkamlab, qo'li gul tikuvchiga aylandi.

Dastlab uyida mahalladoshlariga turli kiyim-kechaklarni tikib sotgan Fotima keyinchalik "Do'stlik" ordeni sohibasi Nozik Yo'ldoshevaga shogird tushib, kashtachilik sirlarini ham puxta o'zlashtirdi. Uning iqtidori aynan kashtachilik sohasida yanada namoyon bo'ldi. Mahoratli yosh usta-hunarmandning ishlari tez fursatda respublikaga mashhur bo'ldi, buyurtmachilari soni ortdi, u o'zi



tikkan kashtalari bilan turli ko'rik-tanlovlarda ishtirok eta boshladi.

Hozir Fotima tikayotgan kiyim-kechak, bejirim kashtalar nafaqat Samarqand, balki qo'shni viloyatlarda ham xaridorgir. Matonatli qiz hayotini yengib, maqsadlariga erishmoqda. U o'z qat'iyati, jasorati bilan qiyin vaziyatda qolgan minglab insonlarga umid va ilhom berdi. Izzatulla NORQUVATOV.

**Toyloq tumanidagi 10-maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi Ozoda Vahobova ham 20 yildan ortiq maktabgacha ta'lim sohasida faoliyat yuritayotgan fidoyi mutaxassislardan. U ham kasb bayrami arafasida davlatimiz rahbari farmoni bilan "Shuhrat" medali bilan taqdirlandi.**

Onam uzoq yillar maktabgacha ta'lim tizimida yordamchi tarbiyachi bo'lib ishlagan, - deydi Ozoda Vahobova. - "Sen, albatta, oliy ma'lumotli bo'lishing kerak, ana shunda mening orzularimni amalga oshirgan bo'lasan", derdi. Bugun o'sha orzular ushaldi. Ammo bu e'tirof qalbiga cheksiz faxr-iftixor bag'ishlash bilan birga, zimmamga yanada zalvorli mas'uliyat yukladi.

Soha rivoji yo'lida fidoyilik ko'rsatayotgan



Ozoda Vahobova kabi jonkuyar yurtdoshlarimiz faoliyati har qanday maqto'v, nufuzli mukofotga loyiq.

Shuhrat NORMURODOV.

## BU FAKT!

Bugun viloyatimizda 11 ta davlat, 5 ta nodavlat oliy ta'lim muassasasi, 22 ta texnikum, 16 ta kollej, 37 ta kasb-hunar maktabi, 1355 ta umumiy o'rta ta'lim maktabi, 4131 ta maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyat yuritmoqda.

# Oqdaryodagi maktabga vazirdan maktub keldi

Asrga tengdosh maskanlar

Bayram arafasida Oqdaryo tumanidagi 8-umumta'lim maktabi 100 yilligini nishonladi. Odatda shaxslarning tavallud sanasi munosabati bilan o'ziga tegishli sohaning yuqori idoralardan tabriknomalari keladi. Lekin bu gal Maktabgacha va maktab ta'lim vaziri ushbu maktabning bir asrlig to'yi munosabati bilan jamoaga o'z tabrik maktubi va sovg'alarini jo'natdi.

Sana munosabati bilan 8-maktabda tashkil etilgan tadbirda ushbu ta'lim muassasasida ishlagan ustozlar, tuman, viloyat jamoatchiligi vakillari, respublikamizning turli hududlarida mehnat qilayotgan sobiq bitiruvchilar ishtirok etdi.

Qaysidir maktab o'quvchilarining bilim darajasi, qaysi biri esa sportdagi yutuqlari, yana biri o'quvchilarni kasbga, hunarga yo'naltirishda ilg'orlab ketadi. Shu kunlarda o'zining 100 yoshini nishonlagan 8-umumta'lim maktabi maktab atalmish dargohning barcha talablarini o'zida jo'etgan va o'z qadriyatlarini asrab kelayotgan ta'lim muassasasi sifatida gavdalanadi. Bir asrlig maktabning o'z qadriyatlarini bo'lmasligi mumkin emas, albatta. Shu maskanda ishlab ketgan ustozlarni yo'qlash, bitiruvchilarini so'rab turish, holidan xabardor bo'lish, bilim o'quvchini qo'llab-quvvatlash, hunarga jalb etish, maktabning obodligiyu har bir xasini qadrlash bu yerda qariyb qadriyatga aylangan. Shuning uchun ham maktabning yuz yilligini bog'liq anjuman aynan shu yerda ishlab ketgan ustozlarning holidan xabar olish va uch avlod uchrashuvlarini tashkil etishdan boshlandi.

Anjuman avvalida yig'ilganlarga o'qib eshittirilgan, Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri Hilola Umarovaning tabrigida ham bu qadriyatlar tilga olindi: "Sizlar tarbiyalayotgan yoshlar mamlakatimizning turli hududlarida mas'ul vazifalarda samarali mehnat qilib, yurtimiz taraqqiyotiga munosib hissasini qo'shmoqda. Ular orasida uzoq yillardan buyon el xizmatida samarali mehnat qilib kelayotgan fidoyi insonlarning ko'pligi shu maktab o'qituvchilarining zahmatli mehnati samarasidir. Ayniqsa, bitiruvchilar orasida Samarqand davlat veterinariya meditsina-

si, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetida uzoq yillar faoliyat ko'rsatgan professor K.Mo'minov, Samarqand davlat universiteti jahon tarixi kafedrasini mudiri, "Shuhrat" medali sohibasi Sh.Hamroqulova va boshqa olimlar borligi quvonarli. Ta'lim dargohida uzoq yillar tarix va huquq fanidan dars bergan muallima Ra'no Arbobovaning mehnatlari tufayli bugun u kishining shogird-



lari viloyatning turli hududlarida tarix fanidan dars berib, viloyat, respublika miqyosida yuqori natijalarni qo'lga kiritayotir".  
- Maktabimizda ta'lim olayotgan 453 nafar o'quvchiga 54 nafar fidoyi o'qituvchi ta'lim-tarbiya berishmoqda, - deydi maktab direktori Sirojiddin Ochilov. - Maktabimizdagi ustoz-shogird an'anasi o'quvchilarning yaxshi bilim olishiga yordam berib, balki ishga kelayotgan yosh pedagoglarning tajribasini oshirishda ham qo'l kelmoqda.

Maktabimiz o'quvchisi Shohista Xolboyeva biologiya fani olimpiadalarida yuqori o'rinni egallab kelmoqda. Qodir

Rabimov besh muhim tashabbus doirasida o'tkazilgan respublika tanlovida stol tennisi bo'yicha 1-o'rinni egalladi. Uning bu natijasi tufayli maktabimizda 120 million so'mlik sport inshooti bunyod etildi. Dildora Rustamova esa sportning qo'l jangi turi bo'yicha Osiyo miqyosida musobaqalarda bir necha bor oltin kamar sohibasiga aylandi.

Maktabda 18 ta fan to'garagi, 5 ta sport seksiyasi, 4 ta kasb to'garagi faoliyat olib bormoqda.

- Otam uzoq yillar shu maktabda rahbarlik qilgan, - deydi Oqdaryo tumanidagi 46-umumta'lim maktabi rahbari Mo'tabar Nuriddinova. - Oilada o'n nafar farzand



bo'lsak, bugungi kunda olti nafarimiz o'qituvchilik kasbini egalladik. Oilamizdagi suhbatlar doim ta'lim sohasida bo'lar, o'quvchilarning bilimi, tarbiyasi haqidagi fikrlar yosh paytimizdanoq qulog'imizga singib borardi. Hozir ham o'z yo'limizni topib, necha yoshga kirgan bo'lishimizga qaramay, ota-onamning uyiga borib, u kishidan maslahat olamiz, qayerda xato qilayapmiz, shuni anglashga intilamiz.  
Anjuman davomida maktabning bir guruh faol o'qituvchilari, faxriy ustozlar e'zozlandi.

Gulruh MO'MINOVA.

Payariqlik Bahodir Anorov tumandagi 84-umumiy o'rta ta'lim maktabida o'qidi. 2015-yilda O'zbekiston davlat jahon tillari universitetini muvaffaqiyatli tamomladi va u uchun ustozlari tavsiyasi asosida shu oliy o'quv yurtida ishga qolish imkoniyati tug'ildi. Universitetda qolish Bahodirning orzusi edi. Ammo u o'zi tug'ilib o'sgan Oqqo'rg'on qishlog'ida ingliz tili fani o'qituvchilariga ehtiyoj kattaligini dildan his qildi.

## Qishloqdoshlarini o'ylab, poytaxtdan qaytgan o'qituvchi

- Qishlog'imizda har doim iste'dodli yoshlar ko'p bo'lgan, - deydi u. - Ammo orada shunday yosh iqtidor egalari yo'l-yo'riq ko'rsatadigan ustozlar kamayib qoldi. Shuning uchun Toshkentda qolmasdan, qishloqqa qaytishga qaror qilganman. Bundan afsuslanmayman ham. Shu qishloqda turib ham ulkan marralarni zabt etish mumkin.

Bahodir yosh bo'lishiga qaramasdan, shogirdlar tayyorlashga erishdi. U ishga kelgandan beri maktabni tamomlagan bitiruvchilarning 20 dan ortig'i ingliz tili yo'nalishida oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirdi. Shuningdek, u "Zakovat" va boshqa intellektual o'yinlar uchun klublar tashkil qildi. To'garaklarda hali maktabga chiqmagan bolajonlardan tortib, nuroniyalar hamda oilaviy jamoalar qatnashdi. Ular bo'sh vaqtlarida bu klublarda bilimlarini boyitadi va hordiq chiqarishadi.

- Bolaligidan "Zakovat" ko'rsatuvini kuzatib borardim, - deydi Bahodir Anorov. - Sa'y-harakatlarim natijasida orzularimga erishib kelyapman. Jobir Ahmedov, Bobur Yoqubov, Xushnud Xudoyberdiyev kabi tanliq "zakovat"chilar, bilimdonlar bilan uchrashish, bir davrada o'yinlarda ishtirok etish nasib qildi. Bugungi kunda mahallamiz yoshlari bilan birga intellektual o'yinlarning respublika bosqichlarida qatnashib, faxrli o'rinni egallab kelyapmiz.



Bahodir jamoasi bilan 2021-yilda viloyatimizda o'tkazilgan "Bring ring" o'yinlarida qatnashib, 100 million so'm miqdorida pul mukofotini qo'lga kiritdi.

Shu yil Yoshlar kuni munosabati bilan faol va tashabbuskor yigit-qizlarning bir guruhi davlatimiz rahbari farmoniga ko'ra "Kelajak bunyodkori" medali bilan taqdirlandi.

- Ular orasida men ham borligimdan xursandman, - deydi Bahodir Anorov. - Bu menga shodlik bag'ishlash bilan birga mas'uliyat ham yukladi. Prezident bilan uchrashganimda u kishiga va'da berganimdek, yosh avlodni tarbiyalashda, ularning intellektual salohiyatini oshirishga o'z hissamni qo'shishda bor kuch-g'ayratimni ayamayman.

T.NARZULLAYEV.



## Mamlakatimiz hunarmandlari Samarqandda

Samarqand shahrining Islom Karimov ko'chasida "Silk road bazaar" hunarmandchilik mahsulotlari ko'rgazmasi tashkil etildi.

Butunjahon turizm kuni munosabati bilan o'tkazilgan mazkur tadbirda Qoraqalpog'iston Respublikasi va barcha viloyatlardan kelgan 60 nafar hunarmand ishtirok etdi.

- Tadbirdan ko'zlangan maqsad avvalo, tajriba almashish, - deydi "Hunarmand" uyushmasi viloyat bo'limi rahbari Umid Hakimov. - Ko'rgazmada ko'hna kentimizga kelayotgan mahalliy va xorijiy sayyohlarga hunarmandlarimiz tomonidan tayyorlangan noyob qo'l mehnati asarlarini namoyish etyapmiz. Mehmonlar esdalik

uchun mahsulotlarni sotib olishlari ham mumkin.

Tadбир doirasida samarqandlik hunarmand, tabiiy bo'yoqlar yordamida ipak matoga gul bosuvchi Shoir G'aniyeva tomonidan mahorat darslari tashkil etildi. Shuningdek, hunarmandning "Ajodlar merosi: o'tmish tarixi, an'ana va tajriba" nomli kitobining taqdimoti ham o'tkazildi.

- Avstraliya qo'yi junidan o'zim tayyorlagan bosh va oyoq kiyimlarini ko'rgazmaga olib keldim, - deydi toshkentlik hunarmand Roziya Jumanazarova. - Bu mahsulotlar inson salomatligi uchun juda foydali. Kigiz qalpoq va shippaklarni xorijlik sayyohlar ham qiziqish bilan xarid qilyapti.

Ko'rgazmaning ochilish marosimida respublika "Hunarmand" uyushmasi raisi Rasuljon Mirzaahmedov ishtirok etdi.

## Huquqiy savodxonlik

### FARZAND OTA-ONASIGA MAS'UL

Ota-onalar farzandi uchun mas'ul ekanligi, u voyaga yetguncha g'amxo'rlik qilishi kerakligini bilamiz. Ammo farzandning ota-onasi oldidagi majburiyatlarini haqida hamma ham bilmaydi. Qonunchiligimizda bu munosabatning huquqiy asoslari belgilangan.

Farzandning ota-onasi ta'minotiga mas'ulligi shulardan biri. Odatda jamiyatimizda ayni jarayon ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladi. Biroq voyaga yetgan, mehnatga layoqatli bola o'z ota-onasiga moddiy yordam berishdan bo'yin tovlasa, jarayonga qonunchilik aralashadi va majburiyat sud qarori bilan belgilanadi.

Ota-ona aliment undirish haqidagi talabni bolalaridan biriga yoki barchasiga nisbatan qo'yishi mumkin. Bu holatda sud voyaga yetgan, mehnatga layoqatli bolalarning barchasini hisobga olib aliment miqdorini belgilaydi.

Qonunchilikka ko'ra, aliment undirish nizosi hal bo'lguniga qadar ham sud tomonidan farzanddan ota-onaga vaqtincha to'lab turilishi lozim bo'lgan summa belgilanishi mumkin.

Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli bolalardan undirilayotgan aliment miqdori mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 11,75 foizidan kam bo'lmasligi kerak.

Mansur HASANOV, viloyat adliya boshqarmasi xodimi.

### ICHIMLIK SUV MUAMMOSI HAL BO'LADI

Payariq tumani markazida ko'p yillardan buyon ichimlik suvi yetishmovchiligi asosiy muammolaridan biri bo'lib kelayotgandi. Endilikda bu muammo o'z yechimini topadigan bo'ldi.

"Suv - hayot manbai" loyihasi uchun ajratilgan 3,3 milliard so'm mablag' evaziga tuman markazidagi Mustaqillik mahallasining 5 ta ko'chasida joylashgan 300 ga yaqin xonadon Jag'alboyli mahallasidagi suv inshootiga, qolgan 80 ta hovli esa markaziy suv qudug'iga ulanadi. Suvsozlar 25 kilometr uzunlikda turli hajmdagi suv taroqlarini yangilab, har bir xonadonga ichimlik suvi kirib borishini ta'minlashadi. Shuningdek, qurovchilar texnik jihatdan eskirgan 2 ta suv qudug'i va boshqa qo'shimcha inshootlarni ham rekonstruksiya qiladi.

Qisqa muddatlarda foydalanishga topshiriladigan mazkur inshootlar ishga tushsa, 16 mingga yaqin aholi, o'nlab ijtimoiy soha obyektlari va korxonalar tashkilotlar toza ichimlik suvi bilan ta'minlanadi.

Turg'unboy HASANOV.

## REKLAMA, E'LOMLAR, BILDIRISHLAR / MUHOJAJAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

### DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahridagi "SINO" aksiyadorlik jamiyati (STIR: 200714964) o'z tashkiliy-huquqiy shaklini "SINO" mas'uliyati cheklangan jamiyatiga o'zgartiradi. "SINO" mas'uliyati cheklangan jamiyati "SINO" aksiyadorlik jamiyatining barcha huquq va majburiyatlarini bo'yicha huquqiy vorisi hisoblanadi.

Shu munosabat bilan unga bildiriladigan barcha da'volar gazetada e'lon chop etilgach, bir oy davomida qabul qilinadi.

Manzil: Samarqand shahri "Hazora" MFY, Spitamen shohko'chasi, 270-uy.

\*\*\*

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasida marhum Gafurov Valeriy Gennadevichga (2024-yil 22-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 17-uy.

\*\*\*

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasida marhum Axmedjanova Anora Djumayevnaga (2012-yil 12-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko'chasi, 121-uy.

\*\*\*

Payariq tumani xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasida marhum Raxmanov Sapar Savurovichga (2019-yil 13-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqol ko'chasi, 73-uy.

\*\*\*

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Karimova Zulfuyaga (2001-yil 12-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 158-uy.

\*\*\*

Toyloq tumani xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hasanov Aloviddin G'iyosiddin o'g'li notarial idorasida marhum Urinov Umurzokga (2023-yil 15-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Hasanov Aloviddin G'iyosiddin o'g'li notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Toyloq tumani Toyloq shaharchasi.

\*\*\*

Payariq tumani xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasida marhum Minnazarov Nemat Abduraxmonovichga (2023-yil 17-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqol ko'chasi, 73-uy.

27-sentabr - Butunjahon turizm kuni munosabati bilan Samarqand shahrida xalqaro mototuristlar festivali ham o'tkazildi.

Unda Qirg'iziston, Tojikiston, Qozog'iston, Turkmaniston va boshqa xorijiy davlatlardan mototuristlar ishtirok etdi.

Mazkur festival xorijlik mototuristlarni Samarqandda jamlash bilan birga, motosportni rivojlantirishga hamda turizm imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

To'liq SIDDIQOV, Baxtiyor MUSTANOV (surat).

## Xitoyda o'nlab patentlar olgan samarqandlik olim

**Umrini ilmga bag'ishlab, bu yo'lda qiyinchiliklarni yengib o'tgan Samarqand davlat universitetining Biokimyo instituti organik sintez va bioorganik kimyo kafedrasida professori Xurshid Bozorov ilm-fandagi yangiliklar, zamonaviy laboratoriya, ilmiy tadqiqotchilik faoliyati haqida gapirib berdi:**



tuzildi. Biz 2018-yilgacha ilmiy-tadqiqot ishlarida bir qancha natijalarga erishdik. O'sha yili oshqozon ichak saratoniga potensial kimyo terapiyada ishlatilishi mumkin bo'lgan dori vositasini sintez qildim. Birinchi laboratoriya sharoitida, so'ngra hayvonlarda ta'siri o'rganildi. Hozirgi kunga kelib, bu tadqiqotimiz klinik oldi sinovidan o'tyapti. Ushbu tadqiqotlarimizga Xitoyda o'ndan ortiq patentlar oldik.

2021-yilda Xitoyda turib O'zbekistondagi ilmiy kengashga "Annelirlangan pirimidinlar sintezi, modifikatsiyasi va biologik faolligi" mavzusida fan doktorligi (DSs) dissertatsiyamni himoya qildim. O'sha yili oilam bilan O'zbekistonga qaytishga qaror qildim. 15 yil laboratoriyada tadqiqotlar olib borganim uchun bu mening hayotimga aylandi. Bu ishlarimni Samarqand davlat universiteti rektori, professor Rustam Xolmurodovga aytib berganimdan so'ng u kishi meni qo'llab-quvvatladi. Qisqa muddat ichida laboratoriya uchun boshlang'ich asbob-uskunalar bilan ta'minlab berdi.

Bizda ham zamonaviy laboratoriyalar bo'lishini orzu qilardim. Aslida bizning ilmiy salohiyat xitoyliklarnikidan qolishmaydi. Faqat ilmiy tadqiqotlar olib borishimiz uchun sharoit, zamonaviy laboratoriyalar yetarli bo'lishi kerak.

2023-yilning 24-avgustida Prezident Shavkat Mirziyoyev universitetimizga tashrif buyurdi. O'shanda davlat rahbari bilan suhbatlashish imkoniga muvassar bo'ldim. U kishiga izlanishlarim haqida qisqacha gapirib berdim. Prezidentimiz g'oyalarimni qo'llab-quvvatladi va tajribaxonaga qilishimiz uchun qanday yordam kerakligini so'radilar. Shundan so'ng qariyb 8 milliard so'mlik ilmiy-amaliy loyihamiz Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining innovatsion agentligi tomonidan moliyalashtirildi. Bu loyiha nomi "Saraton kasalligiga qarshi dori vositalarini yaratish laboratoriyasini tashkil qilish" bo'lib, ikki yil ichida shunday laboratoriyani tashkil etishim kerak.

Zamonaviy laboratoriyada ishlashni o'rganish uchun joriy yilda 10 nafar o'qituvchi Xitoyda malaka oshirib keldi, yana o'n nafari safarga otlanish arafasida. Hozir ham xitoylik hamkasblar bilan onlayn ishlayman, u yerda kichik bir guruhim bor.

Shu o'rinda mehnatlarim munosib taqdirlanayotganini ham aytib o'tmoqchiman. 2023-yilda Xitoyning Shinjon-Uyg'ur avtonom regionining ijtimoiy-iqtisodiy rivojiga hissa qo'shganim uchun "Tyanshan" mukofotiga sazovor bo'ldim. 2024-yilda hukumatimiz tomonidan "Shuhrat" medali bilan taqdirlandim. Musofirlikda chekkan qiyinchiliklarimning bari unutildi. Ayniqsa, ota-onam yutuqlarimdan quvonishdi.

Avval xorijda ishlagan bo'lsam, endi Vatanim taraqqiyoti uchun mehnat qilmoqchiman. SamDU Biokimyo instituti tomonidan yaratilgan sharoitlardan foydalanib, kelajakda har qanday murakkab tuzilishga ega bo'lgan birikmalar ni sintez qila oladigan mutaxassislarni tayyorlashni maqsad qilganman.

**Xurshida ERNAZAROVA yozib oldi.**

**Veterinariya sohasida yarim asrdan ko'p mehnat qilib, yetuk mutaxassislarni tayyorlab kelayotgan malakali va zahmatkash olimlardan biri Samarqand veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti dotsenti Mavlon Safarovdir.**

M.Safarov 1944-yilda Buxoro viloyati Shofirkon tumanida tug'ilgan. O'rta maktabni tugatib, Samarqand zooveterinariya texnikumida o'qidi. Ikki yil jamoa xo'jaligida veterinariya texnigi bo'lib ishladi. Keyinchalik Samarqand qishloq xo'jalik institutining veterinariya fakultetiga o'qishga kirdi. 1971-yilda oliygohni tugatib, ilmiy rahbarlari tavsiyasi bilan shu yerdagi assistent bo'lib ishlay boshladi. Mavlon Safarov nomzodlik dissertatsiyasini Moskva veterinariya akademiyasida himoya qildi. 1980-yilda esa unga dotsent ilmiy unvoni berildi.

M.Safarov ilmiy faoliyati davomida Samarqand qishloq xo'jalik instituti dekan o'rinbosari, maxsus ilmiy kengash kotibi, o'quv boshqarmasi boshligi, fakultet dekani, ichki nazorat va monitoring bo'limi boshlig'i lavozimlarida ishladi.

Domla 140 dan ortiq ilmiy-uslubiy ishlar, ilmiy maqolalar, shun-

## Ilm-fan yo'lidagi yarim asr



ingdek, 2 ta darslik, 8 ta o'quv qo'llanma, 1 ta monografiya muallifidir.

M.Safarov hayvonlar ichki yuqumsiz kasalliklariga tashxis qo'yish va davolash usullarini qo'llash bo'yicha ilmiy maktab yaratgan olimlardan biri hisoblanadi. Uning rahbarligida 1 nafar fan nomzodi, 12 nafar magistr tayyorlangan. Shogirdlari nafaqat yurtimizda, balki xorij mamlakatlari veterinariya sohasida mehnat qilib kelmoqda.

Bugungi kunda M.Safarov Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining ichki yuqumsiz kasalliklar

kafedrasida dotsent lavozimida ishlab kelmoqda.

Ustoz universitetda o'quv jarayonlarini takomillashtirish, talabalarning ilmiy salohiyatini oshirish, bakalavriat yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining davlat ta'lim standartlari, malaka talablarini muvofiqlashtirish bo'yicha ishlab, o'quv reja va fanlar dasturlarining tahlili va ularni optimallashtirish bo'yicha tavsiyalar berib kelmoqda.

Malakali kadrlar tayyorlashda jonkuyarligi, jamoatchilik ishlarida faolligi uchun M.Safarov universitetning «Faxrlil ustoz» diplomini, «O'zbekiston Respublikasi veterinariya fidoyisi» va «Yangi O'zbekistonning ibratli oilasi» ko'krak nishonlari bilan taqdirlangan.

M.Safarov yetuk olim sifatida yoshlarga o'z tajribalarini o'rgatib, ularda amaliy ko'nikmalar hosil qilmoqda, huddudlarda epizootik osoyishtaliki ta'minlashda katta hissa qo'shib kelmoqda.

Sevimli ustozimiz Mavlon Safarovni muborak 80 yoshi bilan qutlab, oilasida va ilmiy pedagogik faoliyatida ulkan muvaffaqiyatlar tilaymiz.

**Hakim NIYOZOV, professor,  
Nuriddin RO'ZIQULOV, dotsent,  
Shohista BOTIROVA, assistent.**

## Sportchilarning birinchi ustози

**O'qituvchi va murabbiylar kuni arafasida jahon arenalarida yurtimiz sharafini munosib himoya qilib kelayotgan samarqandlik sportchilardan birinchi ustози, yoshlik xotiralari haqida so'radik.**

Pastdarg'omlik Diyora Keldiyorova 20 yildan buyon dzyudo bilan shug'ullanib keladi. Osiyo va jahon chempioni, Parijda o'tkazilgan o'ttiz uchinchi yozgi olimpiya o'yinlarida oltin medal sohibasi.

- Maktabga bormasimdan o'qituvchi tanlab bo'lganman, - deydi Diyora. - Chunki onam Dilorom Sharipova 22 yildan beri bog'chada tarbiyachi bo'lib ishlaydi. Dastlab qo'limga qalam tutqazib, yozishni, o'qishni o'rgatgan ham onajonim bo'ladilar. Rahmatli buvim pedagog bo'lgan va u kishidan ham ko'p narsani o'rganganman. Maktab davrlariga kelsak, 4-sinf gacha tumanimizdagi 28-maktabda o'qiganman. Keyin 21-umumta'lim maktabida tahsil olganman. Boshlang'ich sinfda Dilbar Xolova o'qitgan. O'qituvchimiz biroz qattiqo'l edi. Lekin men doim sinf faoli sifatida ustozimga yordamchi edim.



Sportdagi ilk ustozim dzyudo bo'yicha murabbiy Xurshida Xalikova. Olti yoshimda buvim u kishining oldiga olib borandilar. Xurshida opa bilan 10 yil, ya'ni jahon chempioni bo'lgunimga qadar birga shug'ullanganmiz. Chempionlik kacha bosib o'tgan mashhaqqatli yo'lmda Xurshida opaning alohida mehnatlari bor.

Ishtixonlik Nigina O'ktamova o'zbek bokschi qizlari orasida birinchi bo'lib jahon chempionligini qo'lga kiritgan, Osiyo chempioni, olimpiya o'yinlari ishtirokchisi.

- Tumanimizdagi 11-umumta'lim maktabida tahsil olganman, -

deydi u. - Sinfda 27 nafar o'quvchi edik. Maktabga ilk qadam qo'ygan paytim birinchi o'qituvchim Nilufar Umurzoqova qo'lida o'qiganman. U kishi opamdek bo'lib qolgan, desam mubolag'a bo'lmaydi. Hozirgacha uyuriga borib, bo'sh vaqtimda ishlariga yordamlashib, xabar olib turaman. Ba'zida maktabga meni chaqirib, "Bu mening champion shogirdim, maktabda a'lo baholarga o'qigan", deb o'quvchilarga o'rnatib qilib ko'rsatadilar. Ustozlarim haqida gap ketganda, sportdagi murabbiylarim Akram Uzoqov va Azim Xudoqulov haqida ham gapirmaslikning iloji yo'q. Chunki sportda erishgan yutuqlarimda ularning mehnatlari katta.



Uljon Amriyeva Urgut tumanida tug'ilgan. Besh yildan buyon dzyudo bilan shug'ullanadi. 2020-yilda Paralimpiya milliy terma jamoasiga qabul qilingan. Gran-pri turnirlari hamda Osiyo o'yinlari g'olib va sovrindori. Maktab ta'limini Samarqand shahridagi ko'zi ojiz bolalar uchun ixtisoslashgan 59-maktab internatida olgan.

- "Ustoz otangdek ulug'" deb bejiz aytishmagan, - deydi Uljon Amriyeva. - Chunki ustoz farzandiga beradigan tarbiya, bilim, mehri o'quvchisiga ham beradi, bolasidan kam ko'rmaydi. Maktabda o'qish, yaqinlardan uzoqda yashash men uchun juda qiyin bo'lgan. Biroq ustozim Halima opa Zayniyevaning e'tibori, qo'llab-quvvatlashi bilan do'stlar orttirdim, maktabni a'lo baholar bilan bitirdim. Eng ko'p vaqtim shu dargohda o'tgan va o'qituvchilardan olgan ta'lim-tarbiyam hozirgacha asqotyapti. Ustozim har doim intilishdan to'xtama, tushkunlikka tushma, muvaffaqiyatning o'zi ortingdan ergashadi, der edilar. Mana, u kishining maslahatlariga amal qilib, kam bo'lmadim, yutuqlarga erishdim, hayotda o'z o'rnimni topdim. Buning uchun Halima opadan va 59-maktab-internatida menga tahsil bergan barcha ustozlarimdan minnatdorman. Fursatdan foydalanib, barcha o'qituvchilarni, ustozlarimni bayram bilan tabriklayman!

**F.FAXRIDINOV.**

### SHU OYDA TAVALLUD TOPGANLAR

**1-OKTABR**

**Jo'raqul SATTOROV** - 1938-yilda Kattaqo'rg'on tumanida tug'ilgan. O'zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi.

**4-OKTABR**

**Obloql UZOQOV** - (1922-1955) Urgut tumanida tug'ilgan. Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi. Qahramon.

**Nafas EShQOBILOV** - 1953-yilda Past Darg'om tumanida tug'ilgan. Fizika-matematika fanlari doktori, professor.

**5-OKTABR**

**Asliddin XUDOYBERDIYEV** - 1972-yilda Urgut tumanida tug'ilgan. Xalqaro toifadagi sport ustasi. "O'zbekiston iftixori" nishoni sohibi.

**Jo'raboy HAMDAMOV** - (1929-2020) Andijon viloyati, Asaka tumanida tug'ilgan. SamDU professori, tilshunos olim.

**Obloql BOZOROV** - (1932-2021) Bulung'ur tumanida tug'ilgan. Falsafa fanlari doktori, professor.

**MUASSIS:** Samarqand viloyati hokimligi

**Bosh muharrir:** Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 11 702 nusxada chop etildi. Buyurtma 511. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

**QABULXONA:** (66) 233-91-51, **REKLAMA VA E'LONLAR:** (66) 233-91-56

**BO'LIMLAR:** (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

**MANZILIMIZ:** 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

**Korxonalar manzili:** Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi: soat 19:00

**Navbatchi muharrir:**

**G'.HASANOV.**

**Navbatchi:**

**G.MO'MINOVA.**

**Sahifalovchi:**

**A.ISMOILZODA.**



Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda

